OLIY TA’LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH MODELLARI

Rizayev Xabib Abduraufovich

O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi magistranti

Received: 16.08.2025
Revised: 18.08.2025
Accepted: 19.08.2025

Key words:

oliy ta’lim, moliyalashtirish tizimi, moliyaviy barqarorlik, ta’lim muassasalari, moliyalashtirish modellari, davlat-xususiy sheriklik, ta’lim sifati, moliyaviy innovatsiyalar.

Abstract

Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish tizimini takomillashtirish modellari tahlil qilinadi. Moliyalashtirishning mavjud tizimi va uning kamchiliklari o‘rganilib, samaradorlikni oshirish uchun innovatsion yondashuvlar taklif etiladi. Shuningdek, davlat va xususiy sektor hamkorligi, grantlar, stipendiyalar, shuningdek, ta’lim xizmatlarining sifatini yaxshilashga yo‘naltirilgan moliyaviy mexanizmlar ko‘rib chiqiladi. Maqola oliy ta’lim muassasalari moliyaviy barqarorligini ta’minlash va ta’lim sifatini oshirishga qaratilgan modellarni ishlab chiqishga qaratilgan.

Hozirgi kunda O‘zbekiston dunyo hamjamiyatida o‘z o‘rni va ahamiyatiga ega bo‘lib bormoqda. Mamlakatimizdagi har bir soha va tarmoqlar zamon talablariga javob beradigan tarzda rivojlanib, ularda yangilanish nafasi ufurmoqda.

Birgina ta’lim sohasidagi islohotlar haqida to‘xtaladigan bo‘lsak, keyingi yillarda yurtimizda ta’lim, xususan, oliy ta’lim tizimida raqobat muhitini shakllantirish, davlat-xususiy sherikchilik va xususiy sektor resurslaridan keng foydalanish, mamlakat aholisini oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasini ilg‘or xorijiy davlatlar darajasiga yetkazishga alohida e’tibor qaratilmoqda va tegishli choralar ko‘rilmoqda. Natijada bitiruvchilarning oliy ta’lim bilan qamrab olish darajasi 2025 yilda 42 %ni tashkil etdi.

Mamlakatda oliy ta’lim tizimini rivojlantirish, albatta, ushbu sohani yetarli moliyaviy resurslar bilan ta’minlashni talab etadi. Bu esa bevosita cheklangan

resurslardan samarali foydalangan holda, cheklanmagan ehtiyojlarni maksimal darajada qondirishni talab etadi. Shu boisdan ham so‘nggi yillarda turli mamlakatlarda davlat oliy ta’lim tizimini moliyalashtirish, shuningdek, budjet mablag‘larini oliy ta’lim muassasalari o‘rtasida samarali taqsimlash mexanizmlarida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Bu ta’lim tizimida o‘quvchilar sonining keskin ko‘payishi va budjet resurslarining cheklanganligi bilan bog‘liq bo‘lib, bu budjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini oshirish va turli budjetdan tashqari manbalarni jalb etishni talab etmoqda, xususan, O‘zbekistonda ham.

Oliy ta’lim hamda uni moliyalashtirish tizimini takomillashtirish bo‘yicha bir qator mahalliy va xorijiy olimlar o‘z tadqiqot ishlarini olib borgan. Jumladan, AQShlik olimlardan Jeyms Din Vard, Elizabet Davidson Pisakreta, Benjamin Ventrau hamda Martin Kurzvillar o‘z tadqiqotlarida oliy ta’lim muassasalarini davlat tomonidan natijadorlikka asosan moliyalashtirish hamda aholining turli qatlamlari (kam ta’minlangan, yetarli daromadga ega bo‘lmagan, irqiy va millat jihatdan kamchilikni tashkil etuvchi guruhlar)ga moliyaviy ko‘mak berish (vaucher)ni taklif etgan (Ward J.D., Pisacreta E.D., Weintraut B., Kurzwe M. an overview of state higher education funding approaches. Lessons and Recommendations. Ithaka S+R, 2020, December 10.).

Tommaso Agasisti, Giusepe Kapiyello hamda Giusepe Katalanolar esa o‘z tadqiqotlarida oliy ta’lim muassasalarini davlat tomonidan moliyalashtirishni 2 ta shaklga ajratgan: oliy ta’lim muassasalarini to‘g‘ridan-to‘g‘ri moliyalashtirish hamda talabalar va ularning ota-onalarini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash (ta’lim vaucheri). Mualliflar moliyalashtirishning aynan ikkinchi shakli ham hozirgi kunda juda muhim manbalardan biri hisoblanishi va uning ijobiy jihatlarini yoritgan (Agasisti T., Cappiello G., Catalano G. The effects of vouchers in higher education: an italian case study. Tertiary Education and Management, 2018, March, vol. 14, no. 1, pp. 27-42.).

Rus olimlaridan YE.G. Chernova, T.D. Axobadze, A.S. Malova, A. A. Saltanlar tomonidan oliy ta'limni moliyalashtirish modellari va ularning faoliyati samaradorligi empirik tadqiq etilgan. Shuningdek, ular o'z tadqiqotlarida oliy ta'lim tizimini davlat budjetidan moliyalashtirish mexanizmlari, jumladan, formula orqali moliyalashtirish, natijadorlikka ko'ra moliyalashtirish va o'zaro kelishilgan tarzda moliyalashtirish mexanizmlarining mohiyatiga ham to'xtalib o'tishgan (Chernova Ye.G., Akhobadze T.D., Malova A.S., Saltan A. A. Modeli finansirovaniya vysshego obrazovaniya i effektivnost' deyatel'nosti universitetov. Empiricheskoye issledovaniye yevropeyskogo opyta i otechestvennaya praktika [Models of financing higher education and efficiency of universities. Empirical study of European experience and domestic practice]. Voprosy obrazovaniya – Questions of Education, Educational Studies, Moscow, 2024, no. 3.).

Rus olimalaridan I.V. Abankina o'z tadqiqotlarida oliy ta'limni moliyalashtirishning bir qator o'ziga xos investitsion modellari, jumladan, shaxsga mo'ljallangan moliyalashtirish, endaument fondlar orqali moliyalashtirish va maqsadli moliyalashtirish mexanizmlarini tadqiq qilgan va bu borada bir nechta xorijiy tajribalarni tahlil qilgan (Abankina I.V. Finansirovaniye obrazovaniya: trend na personalizatsiyu [Financing education: the trend towards personalization]. NEA Journal, 2019, no. 1 (41), pp. 216-225.).

Mahalliy olimlardan S. G'ulomov (Gulyamov S.S. et al. O'zbekistonda inson kapitali omillarining o'zaro aloqalari samaradorligi [The effectiveness of the interaction of human capital factors in Uzbekistan]. Moliya jurnali – Journal of Finance, Tashkent, 2014, no. 4, pp. 119-127.), M. Saidov (Saidov M.X. Oliy ta'lim tizimida moliyaviy boshqaruv [Financial management in higher education]. Tashkent, Tafakkur bustoni, 2011, 432 p.), N. Jumayev (Jumaev N.X., Rahmonov D.A. Oliy ta'lim olishni xususiy manbalardan moliyalashtirish: nazariya va amaliyot [Private funding for higher education: theory and practice].

Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar – Economy and innovative technologies, 2024, September-October, no. 5.), S. Buzrukxonov (Buzrukxonov S.M. Oliy ta'limni innovatsion rivojlantirishni moliyalashtirish mexanizmi va innovatsiyalarning investitsion jozibadorligini baholashning uslubiy yondashuvlari [The mechanism of financing the innovative development of higher education and methodological approaches to assessing the investment attractiveness of innovations]. Logistika va iqtisodiyot – Logistics and Economics, 2021, iss. 1, p. 84.), D. Rahmonov (Rahmonov D. O'zbekistonda ijtimoiy sohani moliyalashtirishni takomillashtirishning metodologik asoslari [Methodological bases of improving financing of the social sphere in Uzbekistan]. Tashkent, Fan va texnologiyalar, 2017, 248 p.), A. Mahmudov (Mahmudov A. Oliy ta'lim muassasalarida moliyaviy resurslarni boshqarish mexanizmini takomillashtirish [Improving the mechanism of financial resources management in higher education institutions]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2019, 45 p.), A. Sherov (Sherov A. Oliy ta'lim muassasalarini budjet mablag'lari hisobidan moliyalashtirishni takomillashtirish yo'llari [Ways to improve the financing of higher education institutions from the budget]. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2021, no. 1 (10), pp. 1121-1133.), Z. Xo'rozov (Po'latov D., Xurozov Z. Oliy ta'lim muassasalari hamda ularning huzuridagi ta'lim muassasalarining moliyaviy mustaqilligini oshirish [Increasing the financial independence of higher education institutions and educational institutions under them]. Business-Expert, 2019, no. 1 (133).) va boshqalar ham aynan oliy ta'lim tizimini samarali moliyalashtirish yo'llari bo'yicha o'z tadqiqotlarini olib borishgan.

Hozirgi kunda ko'pgina mamlakatlarda oliy ta'lim tizimini samarali moliyalashtirish, uni moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish, mavjud mablag'lardan oqilona foydalanish masalalariga katta e'tibor qaratilmoqda. Shulardan kelib chiqib, quyidagi jadvalda ayrim iqtisodchi olimlarning oliy

ta’lim tizimini moliyalashtirish modellari bo‘yicha nazariyalarini ko‘rishimiz mumkin.

1-jadval

Oliy ta’lim tizimini moliyalashtirish modellari bo‘yicha ayrim xorijiy olimlarning nazariyalari

1	D.Braun, A.Vagner, B.Salter, S.Kmit (Nizov A.N., Medzhitova T.I. Zarubezhnyy opyt finansirovaniya vysshego obrazovaniya [Foreign experience in financing higher education]. Russian Economic Internet Journal, 2018, no. 2. Available at: http://www.e-rej.ru/Articles/2018/Nizov_Medzhitova.pdf/.)	. Byurokratik model. . Kollegial model. . Bozor modeli.
2	N.A.Chekanina (Chekanina N.A. Modeli finansirovaniya vysshey shkoly: otechestvennyy i zarubezhnyy opyt [Financing Models for Higher Education: Domestic and Foreign Experience]. Nauchno-tekhnicheskiye vedomosti SPbGPU – SPbSPU Scientific and Technical Bulletin, Economic Sciences, 2019, no. 3.)	. Amerika modeli. . Skandinaviya modeli. . Yaponiya modeli.
3	A.V.Vavilina (Vavilina A.V. Modeli finansirovaniya obrazovaniya: zarubezhnaya praktika [Education Financing Models: Foreign Practice]. Available at: https://www.academia.edu/21543213/modeli_finansirovaniya_obrazovaniya_v/.); A.S.Zaborovskaya, T.L.Klyachko, I.B.Korolev, V.A.Chernets, A.YE.Chirikova, L.S.Shilova, S.V.Shishkin (Zaborovskaya A.S., Klyachko T.L., Korolev I.B., Chernets V.A., Chirikova A.Ye., Shilova L.S., Shishkin S.V. Vyssheye obrazovaniye v Rossii: pravila i real’nost’ [Higher education in Russia: rules and reality]. 2004, 405 p.); S.A.Belyakov, A.S.Zaborovskaya, T.L.Klyachko, I.B.Korolev, N.B.Ozerova, YE.A.Polushkina (Modeli finansirovaniya vuzov: analiz i otsenka [University funding models: analysis and evaluation]. Ed. S.A.Belyakova. Moscow, IET, 2025, p. 282.); N.G.Kuzmina (Kuz’mina N.G. Zarubezhnyy opyt finansirovaniya obrazovaniya v usloviyakh vozrastaniya avtonomii vuzov [Foreign experience of financing education in the conditions of increasing autonomy of universities]. Vestnik Volgogradskogo gosudarstvennogo universiteta – Bulletin of the Volgograd State University, Ser. 3, Economic Ecology, 2023, no. 2 (13).); A.B.Sherov (Sherov A.B. Oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni takomillashtirish yo’llari [Ways to improve the financing of higher education institutions]. Abstract of PhD thesis. Tashkent, 2024.)	. Ehtiyojdan kelib chiqqan holda moliyalashtirish modeli. . Davlat tomonidan ma’lum maqsadlar uchun ta’lim muassasasidan ta’lim xizmatlarini sotib olish modeli. . OTMlarini ularning faoliyat natijalariga ko‘ra moliyalashtirish modeli. . Oliy ta’lim muassasalari ta’lim xizmatlarining bevosita iste’molchilari tomonidan moliyalashtiriluvchi modeli
4	O.G.Ananova (Ananova O.G. Obshchiye podkhodyi zapadnyy opyt upravleniya i finansirovaniya obrazovatel’nykh protsessov vuza [General approaches and Western experience in managing and financing the educational processes of the university]. Vestnik DGTU – Bulletin of the DSTU, 2022, vol. 12, no. 1 (60), iss. 1.)	. Anglosakson modeli. . Kontinental model.
5	B.A.Varlamov, A.D.Avvakumova (Varlamov B.A., Avvakumova A.D. Analiz podkhodov k finansirovaniyu sistemy obrazovaniya za rubezhom [Analysis of approaches to financing the education system abroad]. Fundamental’ne issledovaniya – Basic Research, 2025, no. 6.)	Erkin bozor modeli. Ommaviy bozorga yo‘naltirilgan model. Bozorga qarshi model.
6	B.Praneviciene, A.Pūraitė, V.Vasiliauskienė, Ž.Simanavičienė (Praneviciene B., Pūraitė A., Vasiliauskienė V., Simanavičienė Ž. Comparative analysis of financing models of higher education. Rēzeknes Tehnoloģiju akadēmija, 2025.)	Formula bo‘yicha moliyalashtirish modeli (financing according to the formula). Dasturli moliyalashtirish modeli (programme financing).

		Xizmatdan foydalanuvchilarni moliyalashtirish modeli (financing of service recipient).
7	L.Leshanych, I.Miahkykh, M.Shkoda (Leshanych L., Miahkykh I., Shkoda M. Models of financing of higher education institutions in foreign countries. Baltic Journal of Economic Studies, 2022, vol. 4, no. 5.)	. Ehtiyojga ko‘ra va maqsadli moliyalashtirish modeli. . Natijaga ko‘ra moliyalashtirish modeli. . Ta’lim oluvchilar tomonidan moliyalashtirish hamda OTM talabi va ehtiyojlariga ko‘ra moliyalashtirish.
8	V.Kikutadze, L.Tabatadze (Kikutadze V., Tabatadze L. Diversification of funding models of higher education service market in Georgia. European Scientific Journal, 2024, December, spec. ed.)	. Byurokratik model. . Kollegial model. . Bozor modeli. . Institusional model. . Dasturli va ta’lim oluvchilarni moliyalashtirish modeli. . “Block grant” moliyalashtirish modeli.

Manba: *muallif ishlanmasi.*

Ushbu modellarning ayrimlari mazmuni haqida to‘xtalib o‘tsak. Iqtisodiyot, menejment, ta’lim sohasida bir qator tadqiqotlar olib borgan D. Braun, A. Vagner, B. Salter, S. Kmitlar oliy ta’lim tizimini moliyalashtirishning bir qator modellarini o‘rganib, ulardan uchtasini alohida ajratib, tahlil etgan.

Yuqoridagi jadvalda bir qator olimlarning tadqiqot ishlarida oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishning turli modellarini ko‘rdik. Ularning aksariyatida oliy ta’lim muassasalari moliyalashtirish manbalari bo‘yicha turlarga ajratilgan bo‘lsa, aksariyatida mablag‘larni ishlatish yo‘nalishlari, moliyalashtirish hajmi uchun asos bo‘ladigan ko‘rsatkichlar tanlab olingan.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlarning oliy ta’lim tizimini moliyalashtirishda aniq bir modelning qo‘llanishi kamdan-kam hollarda uchraydi va ko‘p hollarda aralash model sifatida foydalaniladi. Jumladan, O‘zbekistonda ham oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirish talaba soniga ko‘ra (shuningdek, davlat buyurtmasi asosida), ham davlat budjeti, ham budjetdan tashqari mablag‘lar hisobiga amalga oshiriladi. Bir talabani o‘qitish xarajatlaridan kelib chiqib, budjetdan mablag‘ ajratishda, asosan, quyidagi ko‘rsatkichlar hisobga

olinadi:

- bir talaba uchun joriy xarajatlarning bazaviy normativi;
- asosiy aktivlarni xarid qilish va kapital ta’mirlash uchun ajratiladigan budjet mablag‘lari hajmi aniqlanadigan oliy ta’lim muassasasining moddiy-texnika bazasini rivojlantirish va yaxshilash xarajatlari bo‘yicha xarajatlarning bazaviy normativi;
- hamma ta’lim yo‘nalishlari va bosqichlari bo‘yicha o‘rtacha yillik talabalar soni;
- oliy ta’lim muassasasining oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim institutlarida o‘qiyotgan katta ilmiy xodim-izlanuvchilarning o‘rtacha yillik soni va boshqalar.

Fikrimizcha, hozirgi kunda mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishda yuqoridagi 3 modeldan aralash holda foydalanib kelinmoqda. Sababi oliy ta’lim muassasalarining davlat budjetidan ajratiladigan hamda to‘lov-shartnoma asosida ta’lim olayotgan talabalarning to‘lagan mablag‘laridan foydalanish davlat tomonidan alohida hujjatlar bilan belgilab berilgan. OTMdagi ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari ro‘yxati, ularga qabul ko‘rsatkichlari, asosan, davlat buyurtmasi asosida shakllanadi; to‘lov-shartnoma miqdori davlat tomonidan belgilanadi (o‘zini o‘zi moliyalashtirish tizimiga o‘tgan OTMlar bundan mustasno); OTMlariga qo‘shimcha mablag‘lar jalb etish va qo‘shimcha tadbirkorlik faoliyatlari bilan shug‘ullanish imkoniyati yaratilgan; o‘zini o‘zi moliyalashtirishga o‘tgan oliy ta’lim muassasalariga moliyaviy va akademik sohada bir qator erkinliklar berilgan; o‘zaro raqobatni rivojlantirish uchun shartnoma asosida talabalikka tavsiya etilgan talabalarning to‘lov-shartnoma miqdorini (tabaqalashgan, oshirilgan to‘lov-shartnomalarini ham) mustaqil belgilash huquqi berilgan va boshqalar.